JADIDLAR VA YANGI USUL MAKTABLARI

Xudoyberdiyeva Mahbuba Axmadovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy gumanitar” fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu ilmiy tezisda XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan jadidchilk harakati tashkil etgan yangi usul maktablarining faoliyatlari ushbu ilmiy maqolada aks etgan. Shuningdek, joylarda jadid maktablarini tashkil etilishi va Ismoilbek Gaspiralining joylardagi jadid maktablarini rivojlantrish masalalari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, tatar, jadidlar, rus-tuzem maktabi, yangi usul maktabi, Rossiya Imperiyasi, Bog’chasoroy.

ABSTRACT: This article examines the activities of the "new-method" schools established by the Jadid movement, which emerged in the second half of the 19th century. It also highlights the establishment of Jadid schools in various localities and addresses the efforts of Ismail Bey Gaspirali to develop these schools.

Key words: Jadid, tatar, jadidlar, rus-tuzem school, new usul school, Russian Empire, Bogchasoroy.

АННОТАЦИЯ: Данная научная работа отражает деятельность школ нового метода, сформировавших движение джадидов, возникшее во второй половине XIX века. В ней также рассматриваются вопросы создания школ джадидов в регионах и развития этих школ Исмаилбеком Гаспирали.

Ключевые слова: джадид, татарин, джадидлар, русско-туземская школа, новая усульская школа, Российская империя, Богчасарой.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoyib rivojlandi. “Jadid” so‘zi arabcha bo‘lib, yangi usul degan ma’noni anglatadi. Ammo jadidchilar harakati faqat madaniy-ma’rifiy harakat, ya’ni eski maktablarning qiyin o‘qitish tizimiga nisbatan yangi usuliga

asoslangan yangi metod asosidagi o‘qitishga o‘tishdangina iborat emasdi. U ayni chog’da keng, chuqur mazmundagi ma’naviy-ma’rifiy milliy taraqqiyot va milliy istiqlol muammolarini ham o‘z ichiga olgan edi. Bu harakatning yuzaga kelishida O‘rta Osiyoning o‘zidagi demokratik harakatdan tashqari O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida keng quloch yoyib rivojlangan falsafiy-diniy oqimlar va Turkiyadagi “Ittihod va Taraqqiy”, “Yosh turklar” harakatining ta’siri ham katta bo‘ldi. Tarixdan yaxshi ma’lumki, Behbudiy: “Haq olinur, berilmas. Har millat va mamlakat xalqi o‘zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... Biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, hech bir kishi bizning din va millatimizga zulm, tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo‘q” [1;13] –deb yozadi. Jadid milliy ziyolilarining faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri bu yangi usul maktablarininig vujudga keltirilishi bo‘ldi. Sababi bu yangi usul maktablari bolalarninig tez va oson savodxon bo‘lishlarini ta’minlabgina qolmay, balki ularda fanatizm va konservatizmdan holi bo‘lgan yangicha dunyoqarashni shakllanishiga ham xizmat qildi. XIX asr ikkinchi yarmida yurtimizda yangi usul maktablarining paydo bo‘lishi milliy ziyolilar tabaqasining shakllanishi va ichki Rossiyadan kelgan tatar ziyoli va muallimlarining faoliyatlari bilan bog’liq hisoblanadi. Har sohada taraqqiy etish uchun ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo‘lish va olgan ilmini mamlakat taraqqiyoti uchun sarflashi kerakligini aytib o‘tgan. Ayniqsa Vadud Mahmudning bu boradagi qarashlari ahamiyatli “Bizning eng katta dardlarimizdan biri shu bahosiz (ta’lim tizimidagi kamchiliklar) jaholat dardidur. Boshimizga har balo kelsa, shu bilmasligimizdan keladur. Biz har musht yesak, shu bilmasligimizdan yeymiz” [2;115-B]. degan faryodida yoshlarning o‘z davrining innovatsion ta’limidan to‘g’ri foydalanish kerakligini ta’kidlaydi. Demak, jadidchilik harakatining dastlabki davrida xalqni ma’rifatli va madaniyatli qilish pozitsiyasida bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarida ijtimoiy-siyosiy sharoit ko‘proq siyosiy kurash tomon burib yubordi. Jadidchilikning keyingi bosqichlari yangicha ko‘rinish bera

boshladi. Ma’lumki, jadidchilikdagi siyosiy dunyoqarashlik o‘zgarishlar mahalliy yoshlarning Germaniya va Turkiya kabi davlatlarga borib o‘qib kelishi natijasida o‘zgardi[3;34-B].

Turkistonda yangi usul maktablarining paydo bo‘lishi o‘lkada rus-tuzem maktablarining eng rivojlangan yilllariga to‘g’ri keladi. Tatar ma’rifatparvarlari tomonidan bunday o‘quv maskanlari yirik shaharlarda ochila boshlandi. Akademik B.B. Bartoldning yozishicha, bu markazlarda tatar maktablari rus maktablaridan ko‘ra ko‘proq muvaffaqiyat qozongan. Toshkentda 1910-yili 8 ta rus-tuzem maktabi va 16 ta yangi usul maktabi bo‘lgan. Qo‘qonda esa 1911-yili 162 o‘quvchisi bilan 2 ta rus-tuzem maktabi va 530 ta o‘quvchisi bilan 8 ta yangi usul maktabi faoliyat ko‘rsatgan. Rossiya davlat dumasi a’zosi S.Maqsudov esa o‘zining “Turkiston “gazetasida e’lon qilgan maqqolasida Toshkentda 1910-yiilda 20 ta, Qo‘qonda esa 16 ta yangi usul maktablarini borligini ta’kidlaydi. Turkistonda bevosita Rossiya imperiyasinning mahalliy maktablar borasidagi siyosati amaliyotchisi bo‘lgan millatchi shovinist N.P. Ostroumovning yozishicha, o‘lkada birinchi yangi usul maktablari Farg’ona viloyatida paydo bo‘lib, 1890-yillarning boshlariga to‘g’ri keladi. Bu maktablar tatar muallimlari tomonidan o‘z millatiga mansub bolalarni o‘qitish maqsadida ochilgan edi. Shunday maktablardan biri 1897-yili Andijonda paxta tozalash zavodi qoshida ochilgan edi.

Farg’ona viloyatining 1908-yil uchun statistik ma‘lumotnomasida keltirilgan so‘zlar diqqatiga sazovor. Unda aytilishicha 1908-yil birinchi marotaba yangi usul maktablari haqida ma’lumotlar jamlangan. Aslini olib qaraganda bunday maktablar Farg‘ona viloyati 10-12 yil oldin paydo bo‘lgan. Ularning tarqatuvchilari esa batomom, Rossiyaning ichki gubernyalaridan kelgan tatarlar bo‘lib ularning aksariyati ana shu maktablarda o ‘quvchilarni savodini chiqargan muallimlar hisoblanadi.

Yana bir rus tadqiqotchisi A.Dobrosmislovning yozishicha, 1898-yil Toshkentda, Skobelev ko`chasida birinchi tatar qizlar maktabi ochilgan. Maktabda 45 o‘quvchi qiz bo‘lib tatar ayol dars bergan. Ushbu maktabdagi mashg`ulotlar yangi usulda olib

borilgan. 1901-yil esa yana bir shunday qizlar maktabi ochilgan. Unda ham tatar ayol muallimalik qilgan va mashg‘ulotlar yangi usulda olib borilgan. Bu maktabda o`quvchilar soni 50 dan oshgan.

Aslida, Turkiston o`lkasida birinchi usul jadid maktabi ochilishi bevosita Ismoilbey Gaspirinskiy bilan bog`liq. 1890-yillarga kelib Gaspirenskiy o‘z g‘oyalarini yoyish uchun nazarini Turkistonga qaratdi. Bu tabiiy edi. Chunki, Rossiya musulmonlarning deyarli yarmi Turkiston o`lkasida edi. Jadidlar diniy bag’rikenglikni targ’ib qila olgan va unga amal qilgan. Ayniqsa u bir millatning ikkinchi bir millat tomonidan kamsitilishini va millatlararo nikohga qarshi bo‘lganlarga keng targ’ibot ishlarini olib borgan va “har bir musulmon kitobiy xalqlar bilan turmush qurishga muxtordir”, deb ta’kidlagan[4;].

1891-yilning kuzida Rossiya Ichki Ishlar Vazirligi tomonidan vazirlikning masul xodimi Vashkevich V.V. musulmon diniy tashkilot va maktablarida o`tkazilishi mumkin bo‘lgan islohatlar to`g`risida ma`lumot olish maqsadida Qrimga yuboriladi. Vashkevich Qrimga kelganidan keyin u yerda bir necha ma`sul odamlar bilan shular qatorida Gaspirenskiy bilan ham uchrashadi. Gaspirenskiy Ruscha o‘qib, tarbiya olganligidan Qrimda chor hukumati odami hisoblanib bevosita maktablar islohoti blan shug`ullanayotganligi sababli Vashkevich unga musulmon maktablari holati va ularda o`tkazilishi mumkin bo`lgan islohatlar borasida bir ma’lumotnoma tayorlashni topshiradi. Gaspirenskiy tez fursatda ma’lumotnoma tayorlab uning bir nusxasini Turkiston general-guberntori baron A.B. Vrevskiyga o‘lkada musulmon maktablarini isloh qilish va yangi usulni joriy qilish takliflari bildirilgan maktub bilan yuboradi. Gaspirenskiy ushbu maktubda yangi usulning mohiyatini bayon etar ekan shu paytgacha joriy 6 yillik boshlang`ich maktablarni ikki xatto bir yarim yilga tushirish qolgan muddatda rus tili va madaniyatini o`rgatish mumkinligini faqat ularni o‘rgatish yerli ziyolilar qo`liga topshirilishi lozimligini bildirdi va ushbu maktablarning o‘lkada tashkil qilinisihida yordam suradi. General-gubernator maktubni o‘rganish uchun o‘sha

vaqtda Toshkent o‘qituvchilar seminariyasi direktori bo‘lgan N.P Ostroumov va o‘lka bilimdoni hisoblangan V.P.Nalivkinga topshiradi.

N.P.Ostroumov xat bilan tanishib chiqib Gaspirenskiyning jur’atiga hayron qilganligi va … bu masalning Turkiston tub aholisiga bevosita aloqasi yo`q noma’muriy shaxs tomonidan muhokama qilinishi yo‘l qo‘yib bo`lmaydigan ish; deya takidlaydi. Maktubda bildirigan fikrlar “… o‘quv mahkamasi uchun ham Turkiston o‘lkasida mahalliy maorifni tashkil etishda xam qo‘llanma sifatida qabul qilinishi mumkin emas, degan xulosa beradi. V.P.Nalivkin ham o‘z navbatida maslakdoshi N.P.Ostroumov fikrlarini maqullagan holda “Turkistonda” o‘quv sohasida olib borayotgan siyosatimizda Gaspirensikiy kabi bir odamning fikrlariga rag’bat qilinsa, rus hukumati bundan pushaymon bo‘ladi, -deb ta’rkidlaydi Gaspirensikiyga ishonib bo‘lmaydi chunki u o‘zi chiqarayotgan Tarjimon gazetasi orqali rus siyosatiga qarshi fikrlar bildirmoqda,- degan so‘zlar bilan o‘z xulosasini yakunlaydi. General-gubernator yuqorida berilgan xulosalarga asoslanib Gasprinskiyning Turkistondai musulmon maktablarni “Usuli jadid” maktablariga aylantirish takliflari ifodalangan maktubini javobsiz qoldirdi.

Ismoilbey Gasperali maktubiga javob olmagach, o‘zi Turkistonga yo‘l oldi. Turkistonga bo‘lgan sayohat tafsilotlari keyingi faslda batafsil yoritiladi. Uning safari 1893-yilning yoz oylariga to‘g‘ri keladi. Gaspirinskiy Samarqandga kelgan vaqtida o‘sha payt u yerda istiqomat qilayotgan tatar millioneri Abdulg‘ani boy Xusayinov uni o‘z uyiga mehmonga chaqirdi. Abdulg’ani boy Gaspirenskiydan ***“…sayohatingizning bir nishonasi sifatda bu shaharda usuli saftiyani ko‘rsatishingiz kerak”,-*** deb iltimos qiladi. Gaspirenskiy usulni o‘rgatish uchun 30-40 kun Samarqandda qola olmas edi. Shuning uchun ham ***“savki muhabbat ila sayohatda hamrox bo‘lib kelgan Muallim va adib shirvonlik Majidbek G’onizoda”*** **ga qarab, *“….yuziga qaradim ko‘ngildan ko‘ngilga aytan iltimosimni anglab qalban rozi bo‘ldi”,*** - dep yozadi. Majidbek G’onizoda Samarqandda 40 kun qolib, ***“bir maktabda usuli savtiyaning***

tartibi va maxsulini ko‘rsatdi va u vaqt o‘qishni yengillatish masalasidan bebaxra bo‘lgan turkistonliklar orasida” Moshinali makatb, moshinali alifbo” iboralarining paydo bo‘lshiga sabab bo‘ldi”. Lekin bu maktab ko‘p vaqt faoliyat ko‘rsata olmadi”... ***biz ojizlarning ixtiyorida bo‘lmagan sabablarga ko‘ra birinchi Samarqand maktabi ko‘p faoliyat ko‘rsatmadi. Yangi maktab berkitildi …*** Gaspirenskiy Bog‘chasaroyga qaytdi. Maktab yopilishiga qaramay ***maorif nuri sezmadi balki qo‘l ostida yana-yana bir kun ortiq so‘nmaslik uzra olovlandi*** 1895-1901-yillarda Toshkentda to‘rtta usuli jadid maktablari tashkil qilingan edi. Bunday maktablar Turkistonning barcha joylarida birin-ketin ochila boshladi. 1898-yili Xivada Orenburglik Muhammad Vafo va mullo Abdurahmon afandilar tomonidan usuli savtiya maktabi ochildi. Lekin bir oy davom etgan faoliyatidan keyin tassubning ziyoda o‘ldig’ini aglayib, Urganch shahrini ketdilar va u yerda usulini savtiya maktabi kushod etdilar’’. 1907-yilda esa Xiva aholisi o‘sha vaqt valiahd bo‘lgan Isfandiyor to‘raga arz qilib, fevral oyida Qozondan Olimjon Barudiy madrasasidan ikki muallim chaqirtilirdi. Bu mualimlar yangi ochilgan “Maktabi Maxramiy” va “Maktabi jadid” ga tayinlandilar. Xiva valiahdi yangi maktablar ochish, ularni nazorat qilish uchun bir nozir tayinlanadi. Yuqoridagi maktab o‘quvchilari birinchi imtihon topshirganlaridan so‘ng esa Isfandiyor to‘ra yana Olimjon Barudiy madrasasidan bir muallim chaqirtirib yangi maktab tashkil qildi. Maktabi Rushdia (o‘rta maktab) ochish taraddudi boshlandi.

Kelajak may oyida inshaaloh rushdiya maktabi ochildi. Maktabning soxibi vuzroyi kuromdan Islomxo‘ja janblari bo‘lib muallim esa Axmad Nuruddin afandidir”. Xivada ochilgan yuqorida nomi keltirilgan ikki maktabning 113 talabasi 1907-yil 28-mayda valiahd va vuzaron kiromning oldida 31-may kuni esa qizlar muftiylar va uxundlar huzurida imtihon topshirdilar. Imtihondan so‘ng yig’ilganlar yana ikki Muallim taklif qilib maktab, maktab ochishga ahd qilishdi. Yangi maktablar noziri Ramazon Muhammad Karimzoda bu haqda barchaga e’lon qildi.

Xiva xonligining bosh vaziri Sayid Islomo‘ja ham xonlikda zamonga ko‘ra ilm va ma’rifat tarqatishni har narsada ustun ko‘rib Xivaga Ruscha va tatarcha muallimlar olib kelgan va bir qancha usuli jadid maktablari ochdirgan edi. O‘z mablag’i hisobidan bir maktab qurdirdi.

“Tarjimon’’dagi yana bir xabarda ushbu shaxs borasida quyidagi fikrlarni uchratamiz:

“…..Bir qancha yillardan beri “Tarjimon”ni mutolaa qilgan O‘rta Osiyo umarosidan biri edi…..Maktablarning islohi xususda idoramizga murojaat qilib, nashr qilayotgan kitoblarimizdan ko‘plab oldirgan va usuli savtyaning yer olishi va yoyilishiga qattiq kirishgan edi. Valiahd Isfandiyorxon taxtga o‘tirganidan so‘ng ham yangi uusuldagi maktablarning ochilishiga homiylik qilgan. “Xiva xoni Isfandiyor hazratlarining taxtga o‘tirganiga uch yil bo‘ldi. ….Usul va tarbiyadan xabardor 3-4 muallim olib kelib, saroyga mansub to‘ralarning bolalarini o‘qitila boshladilar. Birinchi yili 80 o‘quvchi o‘qidi. Bu maktabning go‘zal natijalari qurilishi bilan yangi katta bir usuli jadid maktabi qurilishiga farmon berdi. Bu ma’lumotlarda ko‘rinib turibdiki, Xiva xonligida usuli savtiya maktablarini tashkili bilan bevosita mamlakat boshida turgan shaxslar jiddiy shug’ullanganlar va bir qancha maktablar tashkiliga bosh-qosh bo‘lganlar. Xiva xonligida mahalliy aholi orasidan Muallim yo‘qligiga, milliy alifbolar yaratilmayotganlgi va O‘rta Osiyoda o‘qiyotgan bolalar bilan Muallim bir millatda bo‘lishi kerakligi to‘g’risida chor hukumati qabul qilgan qonun amalga kirganidan keyin “Tarjimon” o‘z takliflarini ham bildirib bordi. “…..maktablarning ochilishi, ko‘payishi lozim. ….Bog‘chasaroydan olingan dars kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaga endi to‘g’ri kelmaydi. Toshkandda shunday tartib joriy bo‘ldi. S.Alizoda ta’kidlaganidek, maktab siyosatini to‘g’ri yo‘lga qo‘yish jamiyat, iqtisod va madaniyatning taraqqiyotiga muayyan darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqdir. “Ammo biz Turkiston musulmonlari, - deb yozgan edi S.Alizoda, - nainki jadida maktab va madrasa ochayapmiz, balki hanuzgacha, ularni bid’at va harom

sanayapmiz. Bilmayman, biz Turkiston musulmonlariga nima bo‘lgan? Ey, turkistonlik birodarlar! Ey, yurtdoshlar! G‘aflat qachongacha! Jaholat qanchalik...?” [5;38-B]. deya, bong urgan edi. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, mustaqil O‘zbekistonning bugungi kundagi milliy matbuot, teatrining rivojlanish tarixini o‘rganishda jadid matuotining shakllanish bosqichi alohida o‘rinlidir. Turkistondagi bu ma’rifatchilik harakati qisqa muddat ichida bo‘lsa ham mazlum xalqlarni ma’lum ma’noda uyg’ota oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy Tanlangan asarlari. -T.: Ma’naviyat, 2009.
2. Vadud Mahmud. Tanlangan asarlar. Toshkent. 2007.
3. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o‘qigan edilar. O‘zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Davra suhbati materiallari. Toshkent. 1998 yil, 9 oktyabr.
4. Qarang: Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik.// “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1990.
5. Qarang: Farhod Alizoda. Sayid Rizo Alizoda. Tarixiy - biblografik ocherk. - Toshkent. “Abu Matbuot Konsalt” nashriyot, 2011.